SIRDARYO VILOYATI SIRDARYO TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 16-oktabr | 296-9-128-Q/24 | Sirdaryo tuman hokimligi

Sirdaryo tumanida 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-yil, 9-son, 320-modda)ning 6, 25-moddalari, O′zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PQ-3001-son “O′zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to′g′risida”gi Qarori va O′zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarorlari bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o′rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo′yish tartibi to′g′risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrdagi 705-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Aholining ijtimoiy himoya olish huquqlarini ta’minlash, hamda davlat ijtimoiy yordami va xizmatlarini ko‘rsatish tizimini takominlashtirish munosabati bilan ayrim hukumat qarorlariga o‘zgatirish kiritish to‘g‘risida”gi Qarorga asoslanib, Sirdaryo tumanida 2025-yilda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 39-moddasiga asosan ijtimoiy muhofazaga muxtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o′rinlarini band qilib qo′yish maqsadida Sirdaryo tumanida mavjud korxona, muassasa va tashkilotlar xodimlarining ro′yxati bo′yicha o′rtacha sonidan (1262 nafardan) 88,6 kishini tashkil etadigan 7 foiz miqdoridagi, jumladan: o′n to′rt yoshga to′lmagan bolalari, nogironligi bo′lgan bolalari bor yolg′iz otaga yoki onaga, shuningdek ko′p bolali oilalarning ota-onalar uchun 1,8 foiz (23,25 kishi);

umumiy o′rta va o′rta maxsus ta′lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo′lgan yoshlar uchun shuningdek, oliy ta′lim muassasalarining davlat grantlari bo′yicha ta′lim olgan bitiruvchilari 2 foiz (21,6 kishi);

nogironligi bo′lgan shaxslar uchun 3 foiz (37,5 kishi);

O′zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo′shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo′shatilgan shaxslar uchun 0.25 foiz (1 kishi); pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun 0.3 foiz (3.50 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko′ra o′ziga nisbatan tibbiy yo′sindagi majburlov choralari qo′llanilgan shaxslar uchun 0.1 foiz (1 kishi);

Odam savdosidan jabrlanganlar uchun 0,1 foiz (1kishi).

Oilaviy (maishiy) zo’ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun 0.6 foiz (1 kishi) miqdorida ish o′rinlari zaxirasini belgilaydi.

2. Qarorning 1-bandida ko′rsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar bo′yicha 2025-yilda ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar uchun band qilib qo′yilgan ish joylarini barpo etish vazifasi yuklatilgan tashkilotlar, korxona va muassasalar ro′yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ushbu toifa shaxslar uchun ish o′rinlari xodimlar tomonidan o′zlarining mehnat majburiyatlarini to′siqlarsiz bajarishini ta′minlaydigan sanitariya gigiyena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo′lishi kerak.

Shu jumladan: o′n to′rt yoshga to′lmagan bolalari, nogironligi bo′lgan bolalari bor yolg′iz otaga yoki onaga, shuningdek ko′p bolali oilalarning ota-onalar uchun;

umumiy o′rta va o′rta maxsus ta′lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini, hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo′lgan yoshlar uchun;

shuningdek oliy ta′lim muassasalarining davlat grantlari bo′yicha ta′lim olgan bitiruvchilari uchun;

nogironligi bo′lgan shaxslar uchun;

O′zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyaning, Davlat xavfsizlik xizmatining qo′shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo′shatilgan shaxslar uchun;

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko′ra o′ziga nisbatan tibbiy yo′sindagi majburlov choralari qo′llanilgan shaxslar uchun;

Odam savdosidan jabrlanganlar uchun uchun ish o′rinlari zaxirasini belgilaydi.

Kambag′allikni qisqartirish va bandlikka ko′maklashish bo′limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun maxsus malakani talab qilmaydigan ish o′rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, jazoni o′tayotgan yoki sud qarori bilan tibbiy xarakterdagi majburiy choralar ko′rilgan shaxslar uchun ularning kasb bo′yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o′rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo′lmagan shaxslar uchun esa maxsus malaka talab qilmaydigan, hamda yuqorida ko′rsatilgan barcha toifalar uchun mos sharoitlar yaratilishi lozim korxonalar, tashkilotlar va muassasalar ish joylarining eng kam miqdori (kvota) bo′yicha ish o′rinlarini tashkil etilganligi to′g′risida ma′lumotlarni har chorakda, ushbu o′rinlarga ishga joylashganligi to′g′risidagi ma′lumotni har oyning 25 sanasiga qadar tuman Kambag′allikni qisqartirish va bandlikka ko′maklashish bo′limiga topshirsinlar.

4. Ish o′rinlarini band qilib qo′yiladigan kasblar va lavozimlar:

qarorning 1-bandi 2-xat boshida koʻrsatilgan talablarga javob beradigan kasb va mutaxassisliklar boʻyicha korxonalar, muassasalar va tashkilotlar kesimidagi ish oʻrinlari koʻrsatilgan holdagi miqdorda **ilovaga** muvofiq tashkil etilsin.

5. Tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qoʻyish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun koʻrsatilgan ish oʻrinlarini belgilangan muddatlarda va tartibda barpo etilishini taʼminlasinlar.

6. Ushbu qaror bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga nisbatan qonunchilikda belgilangan jarimaga tortilish toʻgʻrisida ogoxlantirilsin.

7. Ushbu qarorda belgilangan ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish oʻrinlarini band qilib qoʻyish sonidan ortiqcha, shu jumladan ish uchastkalari (sexlar) tashkil etish uchun turar joy boʻlmagan binolarni birinchi navbatda ajratish:

mahalliy davlat hokimiyatiga berilgan vakolatlar doirasida qonunda beliglangan tartibda boshqa imtiyozlar berilishi mumkinligi belgilansin.

8. Sirdaryo tumani Kambagʻallikni qisqartirish va bandlikka koʻmaklashish boʻlimi besh kun muddat ichida mazkur qarorni ilovada koʻrsatilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalari rahbarlari eʼtiboriga yetkazish:

Oʻzbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlikka koʻmaklashish Davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartirtibi toʻgʻrisida Nizomni tasdiqlash haqida”gi Adliya Vazirligidan 2019-yil 31-maydan 3163-son bilan roʻyxatdan oʻtkazilgan buyrugʻiga asosan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan ish oʻrinlari sonidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorda haq toʻlashni (subsidiyalar ajratib berish) amalga oshirsin.

9. Qaror matni hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o′rinbosari M.Madaminov, hamda Kambag′allikni qisqartirish va bandlikka ko′maklashish bo′limi boshlig′i S.G’oziyev zimmasiga yuklatilsin.

11. Sirdaryo tuman hokimining 2023-yil 06-oktabrdagi “Sirdaryo tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o′rinlarini 2024-yil uchun band qilib qo′yish to′g′risida”gi 258-9-128-Q/23-sonli qarori 2024-yil 31-dekabrdan o‘z kuchini yo′qotgan deb hisoblansin.

12. Mazkur qaror rasmiy nashrda e′lon qilingan kundan e′tiboran ikki oy o‘tgach kelgusi yil 1-yanvardan kuchga kiradi.

Tuman hokimi **M.Xatamov**

Sirdaryo tuman hokimining
2024-yil 16-oktabrdagi
296-9-128-Q/24-son qaroriga
1-ilova

T/R	Korxona va tashkilotlar nomi	Ularda ishlov-chilar soni	Band qilingan ish o‘rinlari soni				shu jumladan																	
			Jami		shu jumladan nogironlar uchun		o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun		umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilar uchun		safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun		nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun		pensiya oldi yoshidagi shaxslar uchun		jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun		odam savdosi qurbonlari uchun		xujjatlariga muvofiq boshqa toifadagi shaxslar uchun		Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun band qilingan ish o'rinlari soni	
			soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda	soni	foizda

	Jami	**1262**	**88,6**	**7,0 %**	**35,75**	**3%**	**23,25**	**1,8 %**	**21,6**	**2%**	**0,25**	**0,0%**	**37,5**	**3,0 %**	**3,5**	**0,3 %**	**1**	**0,1%**	**1**	**0,1 %**	**0**	**0,0%**	**0,5**	**0,6%**
1	27-maktabgacha ta'lim muassasasi	30	2,5	0,1	1,0	0,0	0,0	0,0	1,5	0,1		0,0	1,0	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		
2	10-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	62	3,8	0,1	1,75	0,0	1,0	0,0	0,5	0,0		0,0	2,3	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		
3	11-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	61	4,0	0,1	1,8	0,0	1,0	0,0	1,3	0,0		0,0	1,8	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		
4	12-maktabgacha ta'lim muassasasi	26	1,8	0,1	0,8	0,0		0,0	1,0	0,0		0,0	0,8	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		
5	13-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	64	4,0	0,1	2,0	0,0	1,0	0,0	1,0	0,0		0,0	2,0	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		
6	14-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	61	3,3	0,1	1,0	0,0	1,0	0,0	0,8	0,0		0,0	1,5	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		
7	17-umumta'lim o'rta	36	3,3	0,1	1,0	0,0	1,0	0,0	1,0	0,0		0,0	1,0	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0	0,25	

	ta'lim maktabi																						
8	25-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	95	3,8	0,0	1,8	0,0	0,8	0,0	0,8	0,0		0,0	1,8	0,0		0,0		0,0	0,5	0,0		0,0	
9	26-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	42	4,0	0,1	1,3	0,0	1,0	0,0	0,5	0,0	0,3	0,0	1,3	0,0	0,5	0,0		0,0	0,5	0,0		0,0	
10	29-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	39	3,0	0,1	1,0	0,0	1,0	0,0	1,0	0,0		0,0	1,0	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0	
11	2-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	64	3,8	0,1	1,3	0,0	1,0	0,0	1,0	0,0		0,0	1,8	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0	
12	32-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	51	3,5	0,1	1,5	0,0	1,0	0,0	1,0	0,0		0,0	1,5	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0	
13	33-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	33	2,8	0,1	1,0	0,0	1,0	0,0	0,8	0,0		0,0	1,0	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0	
14	34-umumta'lim o'rta	40	3,0	0,1	1,3	0,0	1,0	0,0	0,8	0,0		0,0	1,3	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0	

	ta'lim maktabi																							
15	37-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	40	3,8	0,1	1,3	0,0	0,8	0,0	1,0	0,0		0,0	2,0	0,1		0,0		0,0		0,0		0,0		
16	38 - umum ta'lim o'rta ta'lim maktabi	34	2,8	0,1	1,0	0,0	1,0	0,0	0,8	0,0		0,0	1,0	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		
17	40-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	71	4,8	0,1	2,3	0,0	1,0	0,0	0,5	0,0		0,0	2,3	0,0	1,0	0,0		0,0		0,0		0,0		
18	4-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	34	2,8	0,1	1,0	0,0	1,0	0,0	0,8	0,0		0,0	1,0	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		
19	20-maktabgacha ta'lim muassasasi	36	3,8	0,1	1,0	0,0	1,0	0,0	0,8	0,0		0,0	1,5	0,0		0,0	0,5	0,0		0,0		0,0		
20	18-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	71	3,4	0,0	2,3	0,0	1,0	0,0	0,1	0,0		0,0	2,3	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		
21	19-umumta'l	62	5,8	0,1	2,0	0,0	1,0	0,0	1,0	0,0		0,0	2,0	0,0	1,0	0,0	0,5	0,0		0,0		0,0	0,25	

	im o'rta ta'lim maktabi																						
22	1-maktabgacha ta'lim muassasasi	61	4,5	0,1	2,0	0,0	1,0	0,0	1,0	0,0		0,0	2,0	0,0	0,5	0,0		0,0		0,0		0,0		
23	20-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	54	4,3	0,1	1,8	0,0	1,0	0,0	1,0	0,0		0,0	1,8	0,0	0,5	0,0		0,0		0,0		0,0		
24	31-maktabgacha ta'lim muassasasi	36	2,8	0,1	1,0	0,0	0,8	0,0	1,0	0,0		0,0	1,0	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		
25	18-maktabgacha ta'lim muassasasi	28	2,0	0,1	1,0	0,0	1,0	0,0		0,0		0,0	1,0	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		
26	35-umumta'lim o'rta ta'lim maktabi	31	2,0	0,1	1,0	0,0	1,0	0,0	1,0	0,0		0,0	0,0	0,0		0,0		0,0		0,0		0,0		